


II. SANOAT




Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 2024-yilning yanvar-iyun oylarida 11 451,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2023 yilning tegishli davriga nisbatan 108,3 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida ko'proq qayta ishlash sanoatining ulushi 97,2 foizni tashkil etdi (2023 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 107,1 %). Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 1,6 foizni (ishlab chiqarish indeksi 111,2 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,5 foizni (ishlab chiqarish indeksi 78,6 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,7 foizni (ishlab chiqarish indeksi 169,9%) tashkil qildi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish tarkibi**
(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)



■ 2022-yil yanvar-iyun

■ 2023-yil yanvar-iyun

■ 2024-yil yanvar-iyun



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish**
(2024 yilning yanvar-iyun)


<i>Ko'rsatkichlarnomi</i>	<i>Mrld. so'm</i>	<i>2023 yil yanvar-iyuniga nisbatan fizik hajm indeksi</i>
Jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	11 451,5	108,3
Tog'–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	78,8	169,9
<i>Shundan:</i>		
tog'–kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat	78,8	169,9
Qayta ishlash sanoati	11 132,5	107,1
<i>Shundan:</i>		
oziq–ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1 005,6	137,5
ichimliklar ishlab chiqarish	20,4	11,5
to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1 674,3	103,4
kiyim ishlab chiqarish	331,8	84,1
teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish	1,4	51,1
yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	37,1	107,1
qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	51,2	90,0
yozilgan materiallarni nashr etish va aks ettirish	2,9	124,8
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	216,7	78,3
Farmasevtika mahsulotlarini va preparatlarini ishlab chiqarish	-	-
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	172,6	85,1

davomi

<i>Ko'rsatkichlarnomi</i>	<i>Mrld. so'm</i>	<i>2023 yil yanvar-iyuniga nisbatan fizik hajm indeksi</i>
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	-	-
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	1 112,8	100,2
metallurgiya sanoati	20,2	21,8
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	50,7	130,6
elektr uskunalarini ishlab chiqarish	323,6	105,5
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	56,7	879,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	3,9	9,0
Mebel ishlab chiqarish	125,1	103,1
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	93,3	130,4
mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	23,8	137,0
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish	5 808,4	116,7
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	187,7	111,2
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	52,5	78,6


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarida eng yuqori ulushi qayta ishlash sanoati korxonalari (97,2 foiz) hissasiga to'g'ri keldi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida sanoat korxonlari tomonidan 11 451,5 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildiva o'tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 108,3 foizni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat
(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)



2022-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida



2024- yilning yanvar-iyun oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11 132,5 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,2 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)





Joriy yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarining hissasi
(foiz hisobida)




Metallurgiya sanoati

0,2 %


Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 164,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,2 % ni fizik hajm indeksi esa 21,8 % ni ishlab chiqarish hajmi 20,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

9,7%




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 122,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylar yakunlariga ko'ra, ulushi 9,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,2 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 1 112,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

1,9 %



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 133,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi 78,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 216,7 mlrd. so'mni tashkil etdi..




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

14,6 %

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 103,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 674,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.





Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish

9,0 %



Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi 6,9 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,6 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylarda ulushi 9,0 %ni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 134,1 %ni va ishlab chiqarish hajmi 1 025,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

1,5 %

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 125,4 % nitashkil etdi.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 85,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 172,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.





Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

0,2 %



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 88,0 % ni tashkil etgan. 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 11,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 20,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Avtotransport vositalari, treylarlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

50,7 %

Avtotransport vositalari, treylarlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida avtotransport vositalari, treylarlar, yarim tirkamalar ishlab chiqarishning ulushi 46,2% ni, uning fizik hajm indeksi esa 63,0% ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ulushi 50,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 116,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5 808,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.






Elektr jihozlari ishlab chiqarish

2,8%

Elektr jihozlari ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 2,1 martani tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi 105,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 323,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda

Jizzax viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush (Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining yuqorifoiz ulushi) G'allaorol tumani (51,8 %), Jizzax shahri (19,1 %) va Zafarobod (5,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.






**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti
turlarini ishlab chiqarish**
(yirik korxonalar bo'yicha)

<i>Mahsulotlarnomi</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2024 yil yanvar-iyun</i>	<i>2023 yilning yanvar-iyuniga nisbatan foiz</i>
Ishlab chiqaradigan sanoat			
Paxta xom-ashyoni qayta ishlash	t	-	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi	t	6 797,0	54,0
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 1 navli	t	3 978,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 2 navli	t	2 706,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 3 navli	t	112,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 4 navli	t	1,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 5 navli	t	-	-
Paxta chigiti	t	10 632,0	56,5
Momiq	t	663,0	59,7
Tozalangan o'simlik yog'i	t	5 986,1	163,1
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	t	51 795,9	95,8
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	t	422,0	97,9
Yangi so'yilgan sovutilgan go'sht	t	290,9	-
Yumshoq bug'doy va spel'ta uni	t	8 382,8	136,4
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	t	3 292,0	7,7
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar	t	1 192,0	86,1
Portlandsement	t	967 401,8	85,1
«KIA» avtomobili	dona	9 270	121,6
«CHERY» avtomobili	dona	4 160	99,9
«HAVAL» avtomobili	dona	542	-
Chakana savdo uchun qadoqlanmagan paxtadan yigirilgan bir qavatli ip	t	17 783,3	103,1



Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi G'allaorol tumani (51,8 %), shuningdek Jizzax shahri (19,1 %)ga to'g'ri keldi.





Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga G'allaorol tumani (31 617,1 ming so'm), Jizzax shahri (11 086,0 ming so'm) hamda Zafarobod (11 367,0 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichi (7 560,6 ming so'm) dan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Jizzax viloyati

3 552,8 ming.so'm

2022-yil yanvar-iyun




6 362,2 ming.so'm


2023-yil yanvar-iyun

7 560,6 ming.so'm


2024-yil yanvar-iyun

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati, %






Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 976,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, ularning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,0 % ni tashkil etdi.




Hududlar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 976,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,0 foizni tashkil etdi. Hududlar kesimida ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi Arnasoy va Yangiobod tumanlarida (100,0 %) yuqori ekanligini ko'rsatdi.




Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Do'stlik (22,1 %), Zafarobod (13,6 %) hamda G'allaorol (1,5 %) tumanlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.





Sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan
kichik biznes korxonalari, birlikda
2024- yil 1-iyul holatiga



Hududlar miqyosida olib qaralganida, sanoat tarmog'idayangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahri (132 ta) Baxmal (74 ta) va Zomin(82 ta) tumanlarida kuzatildi.

Shuningdek, G'allaorol (64 ta), Sharof Rashidov (74 ta), Zarbdor (46 ta), Forish (30 ta), Paxtakor (24 ta), Mirzacho'l (24 ta), Do'stlik (23 ta), Arnasoy (22 ta), Yangiobod (12 ta) va Zafarobod (20 ta) tumanlarida ham sanoat tarmog'idagi yangi tashkil etilgan korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda.